

## ZAMONAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi  
maxsus fan o'qituvchisi  
Xoliqova Zebiniso Rustamovna*

**Annotatsiya:** *Zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari xaqida ma'lumola.*

**Kalit so'zları:** *Zamonaviy bank, bank xizmatlari, elektron bank xizmatlari, Sms-banking xizmati, Mobile-banking xizmati, bank-mijoz xizmati, valyuta ayirboshlash.*

Zamonaviy davrdagi tezkor va shiddatli rivojlanish hamda iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar davrida raqamlı iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha ilg'or raqamlı texnologiyalar iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Shu sababli aholining turmush tarzini yanada yaxshilash va osonlashtirish, kompyuterlashtirish va mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublikamiz rahbariyati bir qancha qarorlarni qabul qildi va "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqmoqda.

Hozirgi kunda bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'limgan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

HozirBank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazafalardan biri bu bank xizmatlari sifatini oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazishdan iborat. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, bu borada zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirishva bank xizmatlarini ommabopligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Banklar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rinn tutadigan iqtisodiy bo`g'in hisoblanadi. Bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki, butun dunyo miqyosida yangidan-yangi bank xizmatlariga talab ortib, buning natijasida banklarning xizmat turlari mutlaqo yangicha ko`rinish kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan banklarning iqtisodiyotdagi o'rni yanada ortmoqda.

Bugungi kunda bank tizimimiz zamonaviy bank xizmatlarini tezkorlik bilan, jadal amaliyotga tatbiq etishga muhtoj. O'tgan davr mobaynida banklarimiz tomonidan bir qancha zamonaviy bank xizmatlari joriy etildi. Xususan, Bank-Mijoz xizmati (yuridik

shaxslarga o`zlarining hisobraqamlarini doimiy ravishda masofadan turib kuzatib borish hamda boshqarish, ya`ni, turli xil to`lovlarni mustaqil holda amalga oshirish imkonini beradi), Sms-banking xizmati (bu xizmat turi bank kartalaridagi mablag`larni offline rejimda sms orqali boshqarishni anglatadi), Internet-banking (bank xizmatlaridan internet brauzerlari orqali onlayn holatda bank hisobraqamlari va plastik kartalarini boshqarish orqali foydalanish), Mobile-banking xizmatlari (bu – maxsus mobil ilovalar orqali mijozlarning o`z to`lovlari va boshqa operatsiyalarini amalga oshirishlarida foydalilaniladigan xizmat turi) shular jumlasidandir.

Iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining oqilona xatti-harakatlari darajasini oshirish, tranzaksion xarajatlar hajmini kamaytirish va ma`lumotlar olish bo`yicha sarf-xarajatlarni minimallashtirish – bularning barchasi bozor iqtisodiyotining noaniq sharoitida banklar faoliyatiga bevosita taalluqli holatlardir. Bu bilan banklar ma`lum haq evaziga iqtisodiy subyektlar manfaatlari uchun to`plangan ma`lumotlardan foydalangan holda o`zlarining axborot-tahliliy markazlariga ega bo`ladilar. Bank mijozlari banklar orqali o`zlarining quyidagi ehtiyojlarini qondirishlari mumkin: resurslarini ko`paytirish, qo`shimcha mablag`larning manbalariga ega bo`lish, hisobraqamlar ochish va to`lovlarni amalga oshirish, pul-mablag`lari va qimmatbaho buyumlarni saqlash, turli xildagi maslahatlar olish va h.k. Bank xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati uning yuqoridagi ko`rsatilgan ehtiyojlarni qondirishida namoyon bo`ladi. Hozirda mavjud barcha bank xizmatlari umumiyligi holda mijozlarga pul mablag`lari, barcha turdagи qimmatliklar va shu kabilardan qulay tarzda foydalanishlariga va ularni boshqarishlariga zamin yaratadi. Bu orqali bank xizmati tushunchasiga quyidagicha ta`rif berish mumkin, bank xizmati bu – ma`lum bir shaxs, kishilar jamoasi yoki butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat bo`lib, u oldindan belgilab qo`yilgan pul mablag`lari bilan bog`liq operatsiyalar va bank litsenziyasida ko`rsatilgan bank faoliyatlaridan iborat va ushbu jarayonda hech qanday moddiy buyum shaklidagi mahsulot yaratilmaydi. Aniqroq bo`lish uchun bank xizmatlariga boshqacharoq shaklda ham ta`rif keltirish mumkin. Ya`ni, bank xizmati bu – bank operatsiyalarini o`tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intelektual va professional bank faoliyatidir.[1]

Zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangani sari tijorat banklari ham chakana amaliyotlar, mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlar turini oshirish orqali o`z faoliyatini diversifikatsiyalashga erishmoqda. Ayni paytda barcha tijorat banklari Internet tarmog`ida o`zlarining web-saytlarini ochib, uni bankning faoliyatiga oid ma`lumotlar, yangi xizmat turlari va shartlari, mijozlar manfaatiga tegishli axborotlar bilan muntazam boyitib bormoqda. Markaziy bank veb-sayti orqali esa davlat interaktiv xizmatlari ko`rsatish yo`lgan qo`yilgan. Aholi o`rtasida mobil telefonlardan foydalanishning kengayib borishi banklar tomonidan «Mobil-banking» (WAP-banking) va «SMS-banking» xizmatlari yo`lga

qo'yilishiga olib keldi. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (Bank-Mijoz, Internet-banking, Mobil-banking, SMS-banking va boshqalar)ni respublika miqyosida doimiy takomillashtirib borish bo'yicha ishlar barcha banklar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi bir tomondan milliy bank tizimining rivojlanish tendensiyalaridan guvohlik bersa, boshqa tomondan Respublika iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining yanada mustahkamlanishiga sharoit yaratadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi kunga kelib bank xizmatlarining ayrim turlari yo'qolib, ularning o'rnini kunda kunga rivojlanib borayotgan yangi xizmat turlari egallamoqda. Hozirda sug'urta xizmatlarining va depozitlarning yangi turlari paydo bo'ldi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, bugungi kunda barcha mamlakatlarda bank xizmatlarining rivojlanish ma'lum ketma-ketlikka ega.

Axborot-texnologiyalari rivojlanish bilan bank xizmatlarining mijoz uchun qulay vaqtida va istalgan joyda amalga oshirilish bilan qulaylik yaratuvchi elektron bank xizmatlari yuzaga keldi. Biroq ushbu xizmatlari qulayligi bilan bir qatorda biroz xavf-xatarga ham ega. Shuning uchun ham elektron bank xizmatlaridan foydalanishda quyidagi tavsiyalarga amal qilishmaqsadga muvofiq bo'ladi:

- telefonga bankdan kelgan SMS-xabarlarga diqqatli bo'lish;
- amalga oshirmagan operatsiyalarni tasdiqlamaslik;
- shaxsiy hisobni faqat xavfsiz, himoyalangan qurilmadan kiritish.

Foydalanuvchilarning hisobraqamlarni noto`g'ri terish ko`rinishidagi xatolari eng ko`p uchraydigan xatolar hisoblanadi, shu sababdan banklar o`z veb-sahifalarida yetkazib beruvchilarining rekvizitlari avtomatik ravishda to`ldiriladigan xizmatlar uchun to`lovlar degan bo`limlarni joriy etishadi. Bunda sizga berilgan ro`yxatdan kerakli xizmatni ko`rsatuvchi vositachini tanlash kifoya.

Quyidagi jadvalda hozirda mavjud banklarning masofaviy xizmat turlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### Elektron bank xizmatlari[3]

Xizmat nomi	Xususiyatlari
PC-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish bo'yicha ishlar oflays rejimda amalga oshiriladi. Mijoz komponenti realizatsiyasi Java da ishlab chiqilgan va barcha platformalarda ishlaydi. Bunda buxgalteriya dasturlari bilan o'zaro hamkorlik amalga oshiriladi, shuningdek, jamoaviy ishlarni amalga oshirish mumkin.
Internet-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish Internet va brauzer orqali

	onlayn tarzda amalga oshiriladi. Barcha platformalarda ishlaydi. Buxgalteriya dasturlari bilan o`zaro hamkorlik amalga oshirilgan, shuningdek, jamoaviy ishlarni amalga oshirish mumkin.
Mobile-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish bo`yicha ishlar kommunikatorlar va smartfonlardan Internet orqali amalga oshiriladi. Jamoaviy ishslash imkoniyati mavjud, interfeys qurilmaning xususiyatlariga qarab ishlab chiqilgan.
SMS-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish bo`yicha ishlar SMS-xabar yordamida amalga oshiriladi. Shaxsiy SMS-xabarlar quyidagi xarakterga ega bo`ladi: joriy balans, hisobraqam / kartadagi mablag`lar harakati, ko`chirma.
WAP-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish bo`yicha ishlar WAP orqali mobil telefondan amalga oshiriladi. Shuningdek, bank rekvizitlari, valyuta kurslari, hisobvaraq va kartadagi qoldiqlarni bilib olish imkoniyati mavjud.
Phone-Banking	Bank hisobraqamlari va kartalarini boshqarish bo`yicha operatsiyalari mobil telefondan amalga oshiriladi. Bunda joriy hisobvaraq qoldiqlarini ko`rish, faks orqali hisobot tuzish, kartalarni to`ldirish va bloklash, telefon orqali to`lovlarni amalga oshirish mumkin.
Web-Banking	Internet va istalgan brauzer orqali bank hisobvaraqlari va kartalarini boshqarish bo`yicha ishslash mumkin. Bu Internet-Bankingning yengillashtirilgan versiyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda banklar o`rtasida borayotgan raqobat aynan shu, ya`ni, banklarda yangi xizmat turlarini yaratish va uni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilish bilan borishi kerak. Ana shu holatda respublikamizdagi banklar ham jahon miqyosida yirik banklar safida

bo`lish imkoniyatiga ega bo`lishlari mumkin bo`ladi. Har bir bank mijoz uchunqulaylik yaratishga harakat qilsa, o`z-o`zidan aholining turmushi farovonlik darjasini ham ortadi.

Mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloq qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamонавиј naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF -5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil.

2.Гончарук С. А. Институционалше аспект развитиуа сегмента розничх банковских услуг: дис. канд. екон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - Шахти, 2018. - 183 с

3.Декина И.А. Современные банковские операции, продукты и услуги // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 6

4. Декина И.А. Современные банковские операции, продукты и услуги // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 6

5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYA-LARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.

8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

9.Сафарали, Кушоков Юсупович, and Мухаммадсииддиқ Хуррамов. "ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 176-186.

10.Kushakov, Safarali Yusupovich, and Sardor Ahmedov. "The structure of turkish tribes in Central Asia and its historical importance." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 25-27.

11.Kushakov, Safarali Yusupovich, and Sardor Ahmedov. "The structure of turkish tribes in Central Asia and its historical importance." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 25-27.

12.Kushakov, Safarali, and Sardor Akhmedov. "The Ethnic History And Composition Of Uzbek People: On The Example Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 3.02 (2021): 24-27.

13.Сафарали, Кушаков Юсупович. "Чорвадор Қабилалар Дағн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари." *Взгляд В Прошлое* 3.4 (2020).

14.Кушоков, Сафарали. "Сополли ва Жарқўтон маданиятида дағн маросимлари." *Общество и инновации* 2.11/S (2021): 150-154.

15.Yusupovich, Kushakov Safarali. "Қадимий Дағн Маросимларидағи Аңъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 1.6 (2021): 72-77.

16.Kushakov, Safarali Yusupovich. "The role of zoroastrianism in the ancient state of Bactria." *World Bulletin of Social Sciences* 4.11 (2021): 69-72.

17. Tijorat banklarida zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati – тема научной статьи по экономике и бизнесу читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)

18.[https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarida-zamonaviy-bank\\_xizmat-larini-ko-rsatishning-ahamiyati](https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklarida-zamonaviy-bank_xizmat-larini-ko-rsatishning-ahamiyati)